| | |
|---|---|
| | 3. Qurbonova M.M. Hozirgi zamon o‘zbek tili (sodda gap sintaksisi uchun materiallar). O‘zMU, T.: 2002.<br>4. Qurbonova M., Sayfullayeva R., Boqiyeva N., Mengliyev B. O‘zbek tilining struktural sintaksisi. O‘zMU, T.: 2004.<br>5. Mirtojiyev M.M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I jild. O‘zMU. - T., 2004.<br>6. Nurmonov A., Maxmudov N., Axmedov A., Solixo‘jayeva S. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – T.: Fan, 1992. – 233 b.<br><br>**Axborot manbalari**<br>www.pedagog.uz<br>www.cspi.uz<br>www.pedagog.uz<br>www.edu.uz<br>www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK)<br>www.ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta’lim resurslari portali |
| 7. | **O‘quv dasturi Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil “ 29 ” 08. 1-son dagi qarori bilan tasdiqlangan** |
| 8. | **Fan/modul uchun ma’sul:**<br>F.J.Murodova. Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>**B.** Mengliyev – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori, professor;<br>**Q.A.Mo‘ydinov** - Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). |



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
G.I. Muxamedov
____________
2023 yil “___” ____________

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

# HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI II
# O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Ta’lim |
| Ta’lim sohasi: | 110000 – Ta’lim |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60111400- O‘zbek tili va adabiyoti |

**Chirchiq – 2023**

| Fan/modul kodi<br>HO‘AT208 | O‘quv yili<br>2024-2025 | Semestr<br>3 | ECTS - Kreditlar<br>4 | |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | Ta'lim tili<br>O‘zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari<br>4 | |
| 1. Fanning nomi | | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| Hozirgi o‘zbek adabiy tili II | | 60 | 60 | 120 |

2\.

**I. Fanning mazmuni.**

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarni hozirgi o‘zbek adabiy tilining nazariy masalalari (tushunchalar, nazariyalar va ularning isboti, sohaning amaliy masalalarini yechish usullari va boshqalar) bilan tanishtirishdan iborat. Ayni paytda u talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga, adabiy tilning nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Fanni o‘qitishning vazifasi – talabalarga hozirgi o‘zbek adabiy tili fanining ahamiyati, o‘zbek tili fonetikasi, fonologiyasi, grafika, orfografiyasi va orfoepiyasi, morfologiyasi, sintaksisi, punktuatsiyasi va uslubiyatining nazariy asoslariga oid bilim va tushunchalar berish, adabiy tilning shevalarga munosabati, o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishga o‘rgatish va natijada talabalarda o‘zbek adabiy tilining asoslari va og‘zaki adabiy tilning yozma adabiy nutq me'yorlariga munosabati kabilarni bilish, grammatik qoidalarga tayanib, o‘z fikrini hayotiy misollar orqali asoslash, o‘rganganlarini amalda qo‘llay olishga o‘rgatishdir.

**II. Nazariy qism (ma'ruza mashg‘ulotlari)**
**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Leksikologiyaning obyekti, predmeti va vazifalari**

Leksikologiyaning vazifalari. Leksikologiyaning turlari. Leksikologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Leksikologiyada lug‘at boyligining sistema sifatida o‘rganilishi.

**2-mavzu. So‘zning leksik birlik sifatidagi mohiyati.**

So‘z — tilning eng muhim nominativ birligi. Leksemalarning leksik birlik sifatidagi tavsifi. Nominativ birlik. Leksik so‘z. Semema va nomema.

**3-mavzu. Leksemaning semantik tarkibi.**

Leksik ma'no. Qo‘shimcha ottenkalar. Turkumlik semalari. Signifikat.



Valentlik - leksemaning birikma yoki gap tarkibida boshqa leksemalar bilan aloqaga kirisha olish xususiyatlari.

**4-mavzu. Leksik ma'noning semantik tarkibi. Leksemaning uzual va okkazional ma'nolari**

Leksik ma'noning semalari. Atash semalari. Ifoda semalari. Vazifa semalari. Terminlar. Ixtisoslashish, chegaralanish. Determinlashish. Uzual ma'no. Okkazional ma'no. Leksik qo‘llash - leksemaning okkazional (nutqiy) ma'noda qo‘llanishi.

**5-mavzu. Leksik monosemiya va polisemiya**

Leksik monosemiya. Leksik polisemiya. Leksik ma'no taraqqiyoti haqida umumiy ma'lumot. Ma'noning ko‘chishi. Ma'noning kengayishi. Ma'noning torayishi. Leksik ma'no taraqqiyoti natijalari. Metafora, metonimiya, vazifadoshlik, sinekdoxa.

**6-mavzu. Leksik ma'no tiplari.**

Leksik ma'nolarning guruhlanishi. Hozirgi leksik ma'nolar. Avvalgi leksik ma'nolar. Etimon haqida ma'lumot.

**7-mavzu. Leksik sinonimiya.**

Sinonimiya haqida ma'lumot. Ma'no sinonimlari. Uslubiy sinonimlar. Nutqiy sinonimlar. Kontekstual sinonimiya. Leksemalarning sinonim bo4la olmaydigan holatlari. Sinonimiyaning turli leksik qatlamlarga mansub bo‘lishi. Sinonimiya va polisemiya.

**8-mavzu. Leksik antonimiya**

Leksik antonomiya haqida ma'lumot. Kontekstual antonimiya. Antonomik juftlik. Enantiosemiya. Antonimiya va polisemiya. Antonimlarni belgilash mezonlari haqida. Antonimlarning uslubiy vosita sifatidagi tavsifi.

**9-mavzu. Leksik omonimiya**

Leksik omonimiya haqida ma'lumot. Omonimlar. Omoformalar. Omonim omoleksemalarning turlanish va tuslanish sistemalariga munosabati. Omonimlarning yuzaga kelish sabablari. Omonimiya va polisemiya. Leksik omonimiyaga yondosh hodisalar. Omonimlar va omoformalaming uslubiy vosita sifatida qo‘llanishi (paronomaziya).

**10-mavzu. Paronimiya Giponimiya, graduonimiya, partonimiya.**

Paronimiya haqida ma'lumot. Paronimlarning nutqda uslubiy vosita sifatida

qo'llanishi (paronomaziya). Kvaziomonimlar. So'z variantlari. Giponimiya. Graduonimiya. Partonimiya. Giperonim.

**11-mavzu. O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti.**

Til taraqqiyotining xalq tarixi bilan bog'liqligi. O'z qatlam so'zlari. O'zlashgan qatlam. Umumturkiy so'zlar. Sof o'zbekcha so'zlar. Arabcha o'zlashmalar. Fors-tojik so'zlari. Ruscha-baynalmilal o'zlashmalar. So'z o'zlashtirish. So'z o'zlashtirish usullari. So'z o'zlashtirishning chet so'zlarni qo'llashdan farqlari.

**12-mavzu. Leksemalarning ishlatilish doirasi.**

Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksemalar. Ishlatilish doirasi chegaralangan leksemalar. Dialektlarga xos so'zlar. Leksik, fonetik va grammatik dialektizmlaming uslubiy vosita sifatida qo'llanishi. Kasb-hunar leksikasi. Argotizm va jargonizmlar. Vulgarizmlar. 0'zbek tili leksikasida eskirish va yangilanish jarayon lari. Leksik istorizmlar. Leksik arxaizmlar. Arxaiklashish hodisasining grammatik birliklarda uchrashi. Leksik arxaizmlarning leksik istorizmlardan farqlari. Leksik neologizmlar

**. 13-mavzu. O'zbek tili leksikasining emotsional-ekspressiv jihatdan qatlamlanishi.**

So'zning uslubiy bo'yog'i. Emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlarning nutqda qo'llanishi. Nutq ko'rinishlariga xoslangan leksik qatlamlar. Nutq ko'rinishlariga xoslangan leksemalarning badiiy asar tilida qo'llanishi. So'zlarning fonetik tarkibida, grammatik shakllarida nutq ko'rinishlariga xoslanish.

**14-mavzu. Frazeologiya haqida umumiy ma'lumot.**

Frazeologiya. Frazemaning ifoda plani. Frazemaning mazmun plani. Frazemalaming semantik tarkibidagi turkum semalari. Frazeologik monosemiya. Frazeologik polisemiya. Frazemalaming semantik turlari. Frazemalaming shakl munosabatiga ko'ra turlari. Frazemalaming tarixan ikki qatlamga ajratilishi. Frazemalaming ishlatilish doirasiga ko'ra tavsifi.

**15-mavzu. Leksikografiya haqida ma'lumot.**

Lug'atlarning ko'zlangan maqsadga ko'ra turlari. Tanlangan tillar miqdoriga ko'ra lug'at turlari. So'z yoki atama ma'nolarining yoritilishiga ko'ra lug'at turlari. Obyekti va predmetiga ko'ra farqlanadigan lug'atlar. Lug'atlarda maqola



nomlarini joylashtirish tartibi. Lug'at maqolalari sxemalar. O'zbek lug'atchiligi tarixidan qisqacha ma'lumot.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Leksik ma'no taraqqiyotiga olib keluvchi lisoniy va nolisoniy omillar.
2. Leksema va so'z munosabati.
3. Leksemaning atash, ifoda va vazifa semalari bo'yicha mashqlar ishlash.
4. So'z ma'nosi taraqqiyoti, hosila ma'noning vujudga kelish yo'llari va usullari.
5. Leksik ma'noning ko'chishi, kengayishi va torayishi.
6. Metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik ma'no ko'chishi bo'yicha mashqlar.
7. Leksemaning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari bo'yicha mashqlar: Omonim, sinonim lug'ati ustida ishlash.
8. Leksemaning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari bo'yicha mashqlar: antonim va paronimlar lug'ati ustida ishlash.
9. Giponimiya, graduonimiya, partonimiya.
10. O'z qatlam va o'zlashgan qatlam so'zlari tahlili.
11. O 'zbek tili leksikasida eskirish va yangilanish jarayonlari.
12. Emotsional-ekspriisiv bo'yoqdor so'zlarning nutqda qo'llanilishi.
13. Frazeologik monosemiya va polisemiya.
14. Frazemalaming shakl munosabatiga ko'ra turlari.
15. Lug'at tiplari va turlari. Qomusiy va filologik lug'atlar.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Leksikologiyaning turlari.
2. Leksemalarning leksik birlik sifatidagi tavsifi.
3. Leksemaning semantik tarkibi.

| | |
|---|---|
| | 4. Leksik ma'noning semalari<br>5. Leksik monosemiya va polisemiya<br>6. Ma'noning torayishi.<br>7. Ma'noning kengayishi<br>8. Leksik ma'nolarning guruhlanishi<br>9. Ma'no sinonimlari. Uslubiy sinonimlar<br>10. Sinonimiya va polisemiya.<br>11. Leksik antonomiya<br>12. Antonimlarning uslubiy vosita sifatidagi tavsifi.<br>13. Omonimlar. Omoformalar<br>14. Omonimlarning yuzaga kelish sabablari<br>15. Omonimlar va omoformalaming uslubiy vosita sifatida qo'llanishi (paronomaziya).<br>16. Paronimlarning nutqda uslubiy vosita sifatida qo'llanishi (paronomaziya).<br>17. Kvaziomonimlar<br>18. Giponimiya. Graduonimiya. Partonimiya. Giperonim.<br>19. Til taraqqiyotining xalq tarixi bilan bogliqligi<br>20. So'z o'zlashtirishning chet so'zlarni qo'llashdan farqlari<br>21. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksemalar<br>22. Ishlatilish doirasi chegaralangan leksemalar. Dialektlarga xos so'zlar.<br>23. Kasb-hunar leksikasi.<br>24. Argotizm va jargonizmlar. Vulgarizmlar.<br>25. O'zbek tili leksikasida eskirish va yangilanish jarayon lari.<br>26. O'zbek tili leksikasining emotsional-ekspressiv jihatdan qatlamlanishi<br>27. Frazemaning ifoda plani<br>28. Frazemaning mazmun plani<br>29. Frazemalaming ishlatilish doirasiga ko'ra tavsifi.<br>30. Lug'atlarning ko'zlangan maqsadga ko'ra turlari<br>31. Lug'atlarda maqola nomlarini joylashtirish tartibi. |
| 3. | **V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**<br>– Hozirgi o'zbek adabiy tili fanining bo'limlari (fonetika, orfografiya, orfoepiya, leksikologiya, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis va stilistikasi) va ularning o'rganilishi haqida **tasavvurga ega bo'lishi; (bilim);**<br>– Hozirgi o'zbek adabiy tili fanining boshqa fanlardan, jumladan tilshunoslik asaoslari, Tilshunoslik nazariyasi kabi fanlardan farqini, uning ob'yekti, predmeti maqsad va vazifalari haqida **bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma).**<br>-Hozirgi o'zbek adabiy tili fonetikasi va fonologiyasi haqidagi bilimlarga ega bo'lishi, tovushlarning fiziologiyasi, akkustikasi, fizik xossasi bilan tanishishi va qo'llay olishi, olgan bilimlarini amlda qo'llay bilish va fanga oid nazariy |



| | |
|---|---|
| | muammolarga yechimlar topa olish **malakalarga ega bo'lishi kerak.** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur. |
| 6. | **VIII. Asosiy adabiyotlar:**<br>1.Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanmasi. 1-qism. – T.: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi, 2004.<br>2. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2006. – 391 b<br>3. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). Toshkent-2021<br>4. . Mahmudov N,, Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. –T.: O'qituvchi, 1995. – 359 b.<br><br>**IX. Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1.Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.<br>2. Ne'matov H., Sayfullayeva R., Qurbonova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari. "O'qituvchi", T.: 1999. |